



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-67-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-apreldagi 213-F-son farmoyishiga asosan “Mahalla” xayriya jamoat fondi Angor tumani bo‘limi qoshida ochilgan “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga tushgan mablag‘larning sarflanishi hamda “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalari mablag‘larining shakllanishi va maqsadli ishlatilish holati yuzasidan tuman hokimining hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-apreldagi 213-F-son Farmoyishi, 2022-yil 31-martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-son hamda 2022-yil 7-iyundagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qarorlari ijrosi yuzasidan tuman hokimining hisoboti eshilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angor tumani hokimi Q.Mardonovning “Saxovat va ko‘mak”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalari mablag‘larining shakllanishi va ushbu mablag‘larning ishlatilishi holati to‘g‘risidagi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (S.Kuchkarov), tuman hokimligi bosh hisobchisi (G‘.Xudoyqulov):

– ajratilayotgan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi va to‘lanishiga shaxsan javobgarligi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman sektor rahbarlari, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov)ga:

– muhtoj oilalarning yozma va og‘zaki murojaatlarini qayta ko‘rib chiqib,

aniqlangan ehtiyojmand va yordamga muhtoj oilalarni “Temir daftar”ga kiritish;

– “Temir daftar”da qolgan oilalarning ijtimoiy holati va mavjud muammolaridan kelib chiqqan holda ko‘rsatilgan yordamlar natijasida daromad manbai yaratilgan oilalarni o‘z roziligiga asosan, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi qarorlari asosida daftardan chiqarish;

– tadbirkorlikni boshlash uchun kredit so‘rab murojaat qilgan oilalarga kredit mablag‘larini ajratish bo‘yicha zaruriy choralarni ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinayev):

– “Temir daftar”dagi nogironligi bor va ijtimoiy himoyaga muhtoj, kasallikka chalingan fuqarolarni davolash ishlarini tashkil etish topshirilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi (Sh.Rajabova) jamg‘armalar bilan birgalikda:

– oila va xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, moddiy va psixologik yordam ko‘rsatish;

– xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish vazifalari yuklatilsin.

6. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (D.Shanayev):

– tumanda “Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;

– yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

– yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste‘dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish choralari ko‘rilsin.

7. Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (D.Shanayev)ga:

– mahallalarda faoliyat olib borayotgan yoshlar yetakchilarining reyting ko‘rsatkichlari asosida “qizil”, “sariq”, “yashil” toifalarga ajratish;

– reyting ko‘rsatkichlari past bo‘lgan yoshlar yetakchilari faoliyatida yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni bartaraf etish choralarni ko‘rish, ularga uslubiy ko‘mak

ko'rsatish;

– mahallalardagi kam ta'minlangan oilalarda yashayotgan iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati va "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva) "Temir daftar"da qolgan oilalarning ijtimoiy holati va mavjud muammolaridan kelib chiqqan holda ko'rsatilgan yordamlar, tumanda oila va xotin-qizlarning muammolarining yechimlari, yoshlar muammolarini o'rganish, ularning hal etilishiga ko'maklashish, yosh avlodning iste'dodi va qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar va mavjud muammolarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Xalq deputatlari Angor tuman Kengashiga:

– aholi turmush darajasini oshirish, ular tomonidan ko'tarilayotgan muammolarni hal etish maqsadida ijro hokimiyati organlariga deputat so'rovlarini kiritib borish va ularning ijrosini nazorat qilish;

– ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida belgilangan vazifalar ijrosi ustidan Kengash nazoratini yo'lga qo'yish, bu borada deputatlarning faolligini hamda mas'uliyatli bo'lishlarini ta'minlash topshirilsin.

10. Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining doimiy komissiyalariga:

- tumandagi "Saxovat va ko'mak", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" jamg'armalari mablag'larining shakllanishi, ajratilayotgan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi va to'lanishi yuzasidan nazorat o'rnatish, qonun buzilishi holatlarining oldini olish vazifalari yuklatilsin.

11. Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan mutasaddi rahbarlar **har oy yakuni** bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

12. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari, ijrosi tuman hokimining birinchi o'rinbosarlari (O.Muratov), tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari zimmalariga yuklansin.

13. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov